

**MAHMUDHO‘JA BEHBUDIYNING PADARKUSH DRAMASI VA
UNING HAYOTIMIZDA TUTGAN RO‘LI****ПАДАРКУШ ДРАМА МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ И
ЕЕ РОЛЬ В НАШЕЙ ЖИЗНИ****MAHMUDHODJI BEHBUDIY THE DRAMA OF PADARKUSH
AND ITS ROLE IN OUR LIVES*****Maksudova Shahlo****O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi**+998935400750**Максудова Шахло**студентка Международной исламской академии Узбекистана**+998935400750**Maksudova Shahlo**student of International islamic academy of Uzbekistan**+998935400750*

Annotatsiya. Maqolada Turkiston o‘lkasida jadidchilik harakati g‘oyalari kirib kelishi va uning boshqa o‘lkalarga yoyilishi, Mahmudxo‘ja Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy tutgan siyosati, “Padarkush” dramasining yozilishi va uning tarixi, dramaga Turkistonlik aholining tutgan munosabatlari haqida yoritilgan. Shuningdek 1913-1914-yilda chiqqan jurnal va gazetalar atroflicha ko‘rib chiqilgan.

Аннотация. В статье описывается внедрение идей джадидского движения в Туркестане и распространение их на другие страны, общественно-политическая политика Махмудходжи Бехбуди, написание драмы «Падаркуш» и ее история, а также отношение туркестанского населения к драме. Также были тщательно рецензированы журналы и газеты, издававшиеся в 1913-1914 годах.

Annotation. The article describes the introduction of the ideas of the Jadidist movement in Turkestan and its spread to other countries, the socio-political policy of Mahmudhoja Behbudi, the writing of the drama "Padarkush" and its history, and the attitude of the Turkestan population to the drama. Also, magazines and newspapers published in 1913-1914 were thoroughly reviewed.

Kalit so‘zlar: Ma‘rifatparvar, jadid, xalq, taraqqiyparvar, teatr, jurnal, orden, jamiyat, jaholat, adabiyot.

Ключевые слова: Просвещенное, современное, народное, прогрессивное, театр, журнал, порядок, общество, невежество, литература.

Key words: Enlightened, modern, folk, progressive, theater, magazine, order, society, ignorance, literature.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo‘qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko‘rsatib bergan yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak. Chunki ularning g‘oya va dasturlari Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir”¹, - deb o‘z fikrlarini bayon etgan edilar.

XIX asrning 90-yillarida Turkiston o‘lkasida jadidchilik harakati g‘oyalari kirib kelgan. Bu jarayonning sodir bo‘lishiga qrimlik Ismoilbek Gasprialining faoliyati katta turtki bo‘lgan. Jadidchilar dastlab eskirib, zamon talablariga javob bera olmayotgan musulmon ta’lim tizimini isloh etuvchilar sifatida maydonga chiqqanlar. Keyinchalik (XX asr boshlarida) jadidchilar faoliyatlarida siyosiy-ijtimoiy qarashlar ham shakllana boshlangan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr bo‘sag‘asida Turkiston ijtimoiy - siyosiy harakatining eng yirik namoyondasidir. Turkiston jadidlarining mustaqil tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g‘oyasining O‘lkamizda XVI asrdan boshlangan inqiroz va turg‘unlik, o‘zaro janjal, mahalliy urug‘chilik nizolari millatni holdan toydirdigan, imkondan foydalanib o‘lkani zabt etgan Rossiya zo‘r berib, uni tutqun saqlashga urinardi.

ASOSIY QISM

“Padarkush” asari XX asr boshlarida Turkiston xalqlari hayotining eng dolzarb muammolari mavzusida yozilgan bo‘lib, u jadidchilik mafkurasining dasturi sifatida ma’rifatparvarlikning tub siyosiy va ijtimoiy maqsadini ifodalagan. Muallif bu pyesada, jadidlarning Turkistondagi ijtimoiy tuzum, mustamlaka zulmiga bo‘lgan munosabatlarini boy va uning o‘qimagan o‘g‘li misolida tasvirlaydi. Chindan ham Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasida ma’rifatparvarlarning ijtimoiy-ma’rifiy g‘oyalari o‘z ifodasini topgan. Asarda boyning “boylik turganda ilm-ma’rifatning keragi yo‘q” qabilida ish tutib, o‘g‘li Toshmurodni takasaltang, noshud qilib o‘stirganligi haqida so‘z boradi. Boy ilmning afzalligi haqida gapirgan domla va taraqqiyparvar ziyolini jerkib tashlaydi. Pyesaning yakunida o‘g‘il sheriklari bilan o‘z otasini tunash uchun kelib, uning o‘limiga sabab bo‘ladi.

Asar u qadar katta emas, syujeti ham sodda, biroq muallif unga teran ma’noni singdira olgan: ma’rifatdan ilmdan yiroq boylar ularning savodsiz jamiyatining yakuni shundaydir.

Dramadagi obrazlar aniq tizimga solingan, ya’ni tiplarga bo‘lingan. Jadidlardagi fatalistik (taqdirga ishonish bilan bog‘liq) kayfiyat Ziyoli - jadid va Domullaning

¹ <https://daryo.uz/2023/12/22/shavkat-mirziyoyev-jadidlar-goyasi-yangi-ozbekiston-strategiyasi-bilan-har-tomonlama-uygun-va-hamohang>

fikrlari bilan uyg'unligiga ko'ra bitta guruhni tashkil qiladi. Shuningdek, dramada o'g'il va otaning hayot so'qmoqlarida toyishi, og'ir qismati, oqibatsiz farzandning badarg'a qilinishiga bog'lik voqealar vaqt va makon jihatidan uyg'unlashtiriladi. Qismati o'lim bilan tugagan barcha obrazlar fojiasining ma'rifatsizlik, diniy urf-odatlar, rasm-rusumlar, islomiy aqidalarni noto'g'ri talqin qilish singari illatlar bilan bog'lanadi. Behbudiy mazkur drama orqali mana shunday asriy jaholat, fikr, dunyoqarashni o'zgartirish bilan birga turkistonlik tomoshabinlar ko'nglida afsus, nadomat tuyg'ularni uyg'otishni maqsad qilgan edi.

“Padarkush” dramasi kichik dramatik lavha bo'lishiga qaramasdan u chuqur fojiviy mazmun kasb etgan. Drama asosidagi eng muhim g'oya ijtimoiy masalalar jadidlar va ularning maqsadlari bilan uyg'unlashib ketgan. Shuningdek, yangilik tarafdorlarida uchraydigan nuqsonlar ham jadid obrazi zimmasiga yuklatiladi. Behbudiy ularni foydasiz, xalqiga, yurtiga nafi tegmaydigan ilm egasiga aylanib qolayotganiga achinadi, quruq nasihatilikni qoralaydi. Mana shu jihati bilan u realist adib sifatida namoyon bo'ladi. Pyesaning “Padarkush” deb nomlanishiga e'tiroz bildirishi mumkin. Demak, chuqurroq qaralganda, dramani biroz nomlanishi asosli e'tiroz uyg'otmaydi. Jinoyatchini mavhum bir kimsa sifatida ko'rsatilishida muallifning o'z maqsadi bor. U dramada faqat otaning fojiali taqdiri, misolida majoziy ravishda ota-ona, ona Vatan va Turkiston musulmonlarining qismatiga ham ishora qiladi. Agar jamiyat mustamlaka zanjiri ostida yashasa, jaholat, nodonlik avj olsa, buning uchun kim aybdor bo'ladi? Muallif bu savolni tomoshabinlar hukmiga havola etadi. Behbudiy millat bolalarining ilmsiz bo'lib o'sishiga yo'l qo'ymaslik kerakligi, ularning ilmga intilishlarini qo'llab quvvatlash haqida jon kuydiradi.

Dunyoviy ilmlarni diniy bilimlar bilan bir qatorda ko'rishni ham qarz, ham farz deb biladi. Pyesa ommaga shu qadar ta'sir qildiki, keyinchalik ko'pchilik boylar ilm yo'lida “usuli jadid” maktablarini ochishga mablag'larini ham ayamadilar. Bu asar bir maktab, ibrat vazifasini o'tadi: xalqni ozodlikka chaqirdi.

“Padarkush” asari 1911-yilda yozilib, 1913-yilda bosilib chiqqaniga qaramay, muntazam teatr guruhlarini bo'lmaganligi oqibatida ancha vaqtgacha sahna yuzini ko'rmadi. Behbudiy kuyunib, bunday deb yozgan edi: “... o'ynay turg'on odam yo'q, Turkistonda bekor odam yo'qki, xalq uchun ishlasa. Va bekor odam yo'qki, teatr sahnasiga chiqib, masarabozlik qilsa (Chunki Turkistonda teatrni masarabozlikdan ayirmadilar), qachonki, masarabozlik (artistlik) xizmatini zimmasiga oluvchi o'n kishi topilsa o'ynalur”².

“Padarkush” dastlab Samarqandda 1914-yilning 15-yanvarida sahnaga qo'yildi. “Xalq nihoyat ko'p kelib bilet yetmagani va joyning yukligi uchun uch-to'rt yuz kishi qaytib ketdi”³, deb yozadi mahalliy matbuot. Drama Toshkentda 1914-yilning 27-

² “Oyna” jurnali. 1914-yil, 14-son.

³ O'sha manba

fevralida qo'yildi. Avloniyning "Turon" truppasi Kolizey (Hozirgi Savdo birjasi binosi)da o'z faoliyatini mana shu "Padarkush" dramasidan boshlagan edi. Spektakl oldidan mashhur Munavvarqori teatrning jamiyat hayotidagi o'rni haqida nutq so'zlaydi. Bosh rol bo'lgan boyni Abdulla Avloniyning o'zi ijro etadi. Mahalliy matbuot bu kunni "tarixiy kun"⁴, deb yozadi. "Turon" truppasi 1914- 1916 yillarda bu spektakl bilan butun Farg'ona vodiysini aylanib chiqdi. "Padarkush" Turkistonni junbushga keltirgan qirg'inbarot inqilob yillarida ham sahnadan tushmadi. Bir tomondan, millatni ma'rifat va taraqqiyot sari undashda buyuk rol o'ynagan bo'lsa, ikkinchi yoqdan, o'zbek teatri va dramachiligining maydonga kelishi hamda taraqqiyotida muhim xizmat qildi. 1916-yilda Toshkentga kelib Kolizeyda "Turon" ning qator spektakllarini ko'rgan A.N.Samoylovich yozadi: "Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan xol edi. Yangi adabiyotning markazi Samarqand... yosh qalamkashlarning bosh ilxomchisi samarkandlik mufti Mahmudxo'ja Behbudiydir".

1913-yildan Behbudiy matbuot ishlari bilan shug'ullanadi. Apreldan "Samarqand" gazetasini chiqaradi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, keyin to'rt sahifada chop etilgan. 45 ta sonidan keyin moddiy tanqislik tufayli chiqishi to'xtagan. O'sha yilning 20-avgustidan u "Oyna" jurnalini chiqara boshlaydi. Asar muallifi Mahmudxo'ja Behbudiy va spektakl ijodkorlari o'sha davrning bir qator katta muammolarini ko'tarib chiqqanlar. Shulardan biri Turkistonni mustamlakaga aylantirganlar ta'sirida, yomon illatlar ham kirib kelgani ham ko'rsatib berilgan. O'sha davr matbuotida asoslangan holda to'la ishonch bilan aytamizki, spektakl juda katta muvaffaqiyat qozondi. "Oyna" jurnalining 1914-yil 22-mart sonida Fuzoil Joniboyevning "Toshkentda milliy teatr" nomli maqolasida, unda aktyorlar o'z rolini muvaffaqiyatli ijro etganligi, ayniqsa, Abdulla Avloniy ijrosida boy obrazi to'laqonli gavdalantirilganligi ta'kidlab o'tildi. Milliy Uyg'onish-jadidlar Rennessansini xorijdagi olimlar ham tan olib, o'z asarlarida bunga amal qilmoqdalar.

Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda "Biz jadidchilik harakat ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaxo boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi".

Milliy ta'lim va tarbiya tizimini yaratishga beqiyos hissa qo'shgan Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonov "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangani barchamizni birdek quvontirdi. Zero, muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Bu insonlar haqiqiy yetakchilar, ilg'or ziyolilar, adabiyot, madaniyat namoyandalari, boshqacha aytganda, millatimizning,

⁴ Turkiston viloyatining gazetasi, 1914, 18-son, 2-mart.

xalqimizning eng sara vakillari edi. Tasavvur qiling, agar ular qatag'on qilinmaganida Vatanimiz rivoji uchun, ilm-fan, iqtisodiyot, madaniyat va adabiyotimiz uchun qanday buyuk ishlar qilgan bo'lar edi, xalqimizni oldinga boshlardi".

Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy o'tgan asrning boshidayoq, "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur", degan haqqoniy fikrlar bilan Turkiston ahlining ongu-shuurini uyg'otishga da'vat etgani bejiz emas, albatta. Bu so'zlarning qanchalik haqiqat ekanini bugungi yuksak tafakkur va texnologiyalar zamoni ham isbotlamoqda.

XULOSA

Mamlakatimiz tarixida jadidchilik harakatini salmoqli o'rni bor va buni o'rganish davlat siyosati darajasidagi masala hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida quyidagilarni ta'kidladi: "2020-yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida ma'rifat mash'alasini baland chiqqan ulug' alloma va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiyning 145 yillik tavallud sanasi keng nishonlanadi. Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz chuqur kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi⁵."

"Padarkush" asari hozirgi kunda ham nafaqat yoshlarimizning ta'lim-tarbiyasi va ma'naviy kamolotiga, balki kattalarning dunyoqarashiga ta'sir ko'rsata oladigan drama sifatida o'z ahamiyatini yoqotmagan. Targ'ibot va tashviqot ishlarida turli tadbirlarda ushbu asarlar bilan bog'liq muhokamalar va munozalar o'tqazilishi maqsadga muvofiqdir. Zero, o'qimagan bolaning holi kelajakda qanday bo'lishi "Padarkush"da to'la namoyon bo'lgan. U ayni chog'da yangi usuldagi maktablarning asoschisi va targ'ibotchisi, yangi darsliklarning ilk muallifi ham bo'ladi. Xullas, Mahmudxo'ja Behbudiy buyuk ma'rifatparvar yetakchi jadidichi sifatida milliy madaniyatimiz tarixidan mustahkam o'rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://daryo.uz/2023/12/22/shavkat-mirziyoyev-jadidlar-goyasi-yangi-ozbekiston-strategiyasi-bilan-har-tomonlama-uygun-va-hamohang>
2. "Oyna" jurnali. 1914-yil, 14-son.
3. Turkiston viloyatining gazetasi, 1914, 18-son, 2-mart.
4. Abdirashidov Z. Yoshlar nashriyot uyi. – Toshkent: 2022.
5. Shahlo, Maksudova. "Mahmudxo'ja behbudiy—turkiston jadidchilik harakati otasi." Научный Фокус 1.3 (2023): 288-291.

⁵ Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.-T.: "O'zbekiston" NMIU, 2020.-B.37

6. Shahlo, Maksudova. “Mahmudxo‘ja behbudiyning ilmiy-ma’naviy merosining bugungi kundagi ahamiyati.” (2023): 5-8.

7. Ibrohim N. Mahmudxo‘ja Behbudiyl asarlari va uning ahamiyati //Yosh Tadqiqotchi Jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 2. – С. 43-46.

8. Nig‘matullayev I. O‘zbekistondagi shia jamoalarini o‘rganishda zamonaviy yondashuvlar //Innovations in Science and Technologies. – 2024. – T. 1. – №. 1. – С. 84-92.